Dastlabki ma’lumotlar

# 2023 – yilning yanvar-sentabr oylarida Sirdaryo viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023 – yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 10 152,3 mlrd. so‘mni yoki 2022– yilning mos davriga nisbatan 106,8 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 9 693,1 mlrd. so‘mni (106,9 %), o‘rmon xo‘jaligi – 362,1 mlrd. so‘mni (101,6 %), baliqchilik xo‘jaligi – 97,1 mlrd. so‘mni (125,3 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Sirdaryo viloyatining ulushi 3,5 % ni tashkil etdi.



**10 152,3** — Sirdaryo viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi, mlrd. so‘m

01 — **9 693,1** — Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02 — **362,1** — O‘rmon xo‘jaligi

03 — **97,1** — Baliqchilik xo‘jaligi

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lar hajmining o‘sish sur’ati




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



2023– yilning yanvar-sentabr yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lar umumiy hajmining 95,4 % – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 3,6 % – o‘rmon xo‘jaligi, 1,0 % – baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.

## Tuman va shaharlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Sayxunobod (1 519,9 mlrd. so‘m), Boyovut (1 485,3 mlrd. so‘m) va Sirdaryo (1 333,6 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (29,8 mlrd. so‘m), Yangiyer (32,3 mlrd. so‘m) va Guliston (238,6 mlrd. so‘m) shaharlarini keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (106,8 %) yuqori o‘sish sur’atlari Guliston (114,7 %) va Xovos (109,7 %), Sayxunobod (107,5 %) tumanlarida kuzatildi. Shirin (100,5 %), Guliston shaharlari (102,4 %), Sirdaryo (102,8 %), Sardoba (103,2 %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

## Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining o‘sish sur’ati




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 9 548,3 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 106,9 % ni tashkil etdi, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 5 370,3 mlrd. so‘mni (110,6 %), chorvachilik mahsulotlari – 4 177,9 mlrd. so‘mni (101,9 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

56,2 %
Dehqonchilik mahsulotlari



43,8 %
Chorvachilik mahsulotlari

## Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 54,9 % – Dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 34,6 % – fermer xo‘jaliklariga, 10,5 % – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

## Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Xovos tumanida (47,4 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Shirin shahrida (99,5 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Mirzaobod tumanida (25,5 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Shirin shahrida (0,5 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Oqoltin tumanida (50,1 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Guliston shahrida (0,6 %) qayd etildi.

## Dehqonchilik

2023– yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 5 370,3 mlrd. so‘mni yoki 2022– yilning mos davriga nisbatan 110,6 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 56,2 % ni tashkil qildi.

## Donli ekinlar

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 436,5 ming t. donli ekinlar (2022– yilning yanvar-sentabriga nisbatan 3,9 % ga ko‘p ) yetishtirildi. Jami don yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiy hajmidan 75,4 % fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, tonna



# Sabzavotlar

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 217,5 ming t. sabzavotlar (2022– yilning yanvar-sentabriga nisbatan 1,3 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 67,3 % Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Sirdaryo viloyati bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna



# Kartoshka

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2023– yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 54,1 ming t. kartoshka (2022– yilning yanvar-sentabriga nisbatan 0,9 % ga ko‘p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 89,2 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna



# Poliz

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 193,0 ming t. poliz (2022– yilning yanvar-sentabriga nisbatan 1,2 % ga ko‘p) yetishtirildi. Poliz yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, poliz yetishtirish umumiy hajmidan 57,1 % fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Siradaryo viloyati bo‘yicha poliz yetishtirish hajmi, tonna



# Meva va rezavorlar

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2023– yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 33,2 ming t. meva va rezavorlar (2022– yilning yanvar-sentabriga nisbatan 2,5 % ga ko‘p) yetishtirildi. Meva va rezavorlar yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, meva va rezavorlar yetishtirish umumiy hajmidan 50,4 % Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha meva va rezavorlar yetishtirish hajmi, tonna



# Uzum












2023– yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 11,4 ming t. uzum (2022– yilning yanvar-sentabriga nisbatan 6,8 % ga kam) yetishtirildi. Uzum yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, uzum yetishtirish umumiy hajmidan 83,9 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna



## Chorvachilik



2023– yilning yanvar-sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 4 177,9 mlrd. so‘mni yoki 2022– yilning mos davriga nisbatan 101,9 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 43,8 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2023– yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 54,7 ming t. go‘sht (2022– yilning yanvar-sentabriga nisbatan 101,1 % ga), 283,6 ming t. sut (103,8 % ga), 141,2 mln. dona tuxum (104,0 %), yetishtirildi va 5,1 ming t. baliq

(119,1 %) ovlandi.

## Go‘sht *(tirik vaznda)*

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 54,7 ming t. go‘sht (2022– yilning yanvar-sentabriga nisbatan 1,1 % ga ko‘p) yetishtirildi. Go‘sht yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht yetishtirish umumiy hajmidan 92,6 % Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



# Sirdaryo viloyati bo‘yicha go‘sht *(tirik vaznda)* yetishtirish hajmi, tonna



# Sut

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2023 – yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 283,6 ming t. sut (2022– yilning yanvar-sentabriga nisbatan 3,8 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 88,3 % Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha yetishtirilgan sut hajmi, tonna



# Tuxum

**Hajmi, ming dona**




**O'sish sur'ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2023– yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 141,0 mln. dona tuxum (2022– yilning yanvar-sentabriga nisbatan 4,0 % ga ko'p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 72,6 % Dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.



# Sirdaryo viloyati bo‘yicha olingan tuxum hajmi, ming dona



# Baliq

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 5 061 tonna (2022– yilning yanvar-sentabriga nisbatan 25,7 % ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 64,1 % fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2023– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 9,0 % fermer xo‘jaliklari hissasiga, 86,8 % Dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 4,2 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 16,6 % fermer xo‘jaliklariga, 78,9 % Dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 4,5 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishi, otlar umumiy sonidan 23,6 % fermer xo‘jaliklariga, 72,6 % Dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 3,8 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 6,6 % fermer xo‘jaliklariga, 33,3 % Dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 60,1 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2023– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 475,9 mingtaga yetdi.

2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 4 475 boshga (0,9 %) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha, jami yirik shoxli qoramollarning 86,8 % Dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh



2023– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 176,6 mingtaga yetdi.

2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 7 696 taga (4,6 %) ko‘paydi.

## Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 85,6 % Dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2023– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 375,6 mingtaga yetdi.

2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 23 515 boshga (6,7 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar














2023– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 78,9 % Dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Sirdaryo viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2023– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 16 356 taga yetdi.

2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 505 taga (3,2 %) ko‘paydi.

## Otlar










Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 72,6 % Dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



# Sirdaryo viloyati bo'yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



2023– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 4 343,3 mingtaga yetdi.

2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 439 595 taga (11,3 %) ko‘paydi.

## Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2023– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 60,1 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Sirdaryo viloyati bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'limi

- 67-236-70-00